



JADIDLAR G'OYASI — YANGI O'ZBEKISTON VA “UCHINCHI RENESSANS”NI BUNYOD ETISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI

MAQOLALAR TO'PLAMI

Ushbu maqolalar to'plami, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining davlat granti, Buxoro viloyati “Shashmaqom” va nomoddiy madaniy merosni o'rganish markazining “Jadidlar g'oyasi – Yangi O'zbekiston va uchinchi renessansni bunyod etishning mustahkam poydevori” loyihasi asosida nashr etildi.

BUXORO-2024
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti



**“JADIDLAR G’OYASI – YANGI O‘ZBEKISTON VA “UCHINCHI RENESSANS”NI
BUNYOD ETISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI”, – [matn] Maqolalar to‘plami,
Buxoro-2024, “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 588 b.**

TASHKILIY ISHCHI GURUHI TARKIBI

- | | | |
|-----|---|---|
| 1. | Naimov Azamat
Hikmatovich | - Buxoro viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig’i |
| 2. | Ma’murov Bahodir
Baxshulloyevich | - Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. |
| 3. | Sulaymonov Shodmon
Sultonovich | - Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo’limi raisi, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, ha’kamlar hay’ati raisi o’rinbosari |
| 4. | Sanoyev G’aybullo
Abdurahmonovich | - Buxoro viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ta’lim jarayonini tashkil sho’basi yetakchi mutaxassisi |
| 5. | Artikova Hafiza
To’ymurodovna | - Buxoro davlat pedagogika institutining Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, Biologiya fanlari doktori (DSc), professor |
| 6. | Murodov SHERzod
Normonovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, Fizika-matematika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, |
| 7. | Muxtorov Erkin
Mustafoevich | - Buxoro davlat pedagogika instituti O’quv ishlari bo’yicha prorektori, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent |
| 8. | Hayitov Hamza
Ahmadovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti tillar fa’kulteti dekani, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. |
| 9. | Qo’ldoshev Rustambek
Avezmurodovich, | - Buxoro davlat pedagogika instituti Sirtqi bo’limi boshlig’i, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent |
| 10. | Sharipov Abduhakim
Ziyoitdinovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, Falsafa fanlari doktori (DSc), professor |
| 11. | Muxammedov Shavkat
Madjidovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti magistratura bo’limi boshlig’i, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| 12. | Rajabov San’atjon
Sunnatovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası, O’qituvchisi. |

- | | | |
|-----|--|--|
| 13. | Jo'rayev Qo'ldosh
Ismatullayevich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i |
| 14. | Yarasheva Dilrabo
G'aniyevna | - Buxoro viloyati "Shashmaqom" va nomoddiy madaniy merosni o'rganish markazi direktori |
| 15. | Nematov Doniyor
Yunusovich | - Loyihani amalga oshirish bo'yicha tajribali mutaxassis |

HAKAMLAR HAY'ATI TARKIBI

- | | | |
|-----|--|--|
| 1. | Inoyatov Sulaymon
Inoyatovich | - Buxoro davlat universiteti, Tarix fanlari doktori, professor - Hakamlar hay'ati raisi |
| 2. | Amonov Ulug'murod
Sultonovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Hakamlar hay'ati raisi o'rinbosari |
| 3. | Sulaymonov Shodmon
Sultonovich | - Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi raisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, ha'kamlar hay'ati raisi o'rinbosari |
| 3. | Sanoyev G'aybullo
Abdurahmonovich | - Buxoro viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ta'lim jarayonini tashkil sho'basi yetakchi mutaxassisi |
| 4. | Safarova Hilola
Oxunjonovna | - Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent |
| 5. | Mirxanova Gulandom
Rustamovna | - Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| 6. | Hayitov Hamza
Ahmadovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti tillar fa'kulteti dekani, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. |
| 7. | Qo'ldoshev Rustambek
Avezmurodovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Sirtqi bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari (DSc), dotsent |
| 8. | Akramova Gulbahor
Rinatovna | - Buxoro davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| 9. | Jo'rayev Qo'ldosh
Ismatullayevich | - Buxoro davlat pedagogika instituti Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i |
| 10. | Muxammedov Shavkat
Madjidovich | - Buxoro davlat pedagogika instituti magistratura bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |

ELBEKNING O'ZBEK TILI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI, HAMDA ASARLARINING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI

Amonov Ulug'murod Sultonovich

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

ulugmurod.amonov@mail.ru

Saparova Shahlo Ramazonovna

Buxoro Davlat Universiteti

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti

Pedagogika kafedrası tayanch doktoranti

Tel: +998914039787; email: saparova.shahlo@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvari, tilshunos, adabiyotshunos olim, pedagog, folklorshunos, tarjimon, shoir va yozuvchi, xullas, serqirra ijodkor Elbek (Mashriq Yunusov)ning tilshunoslikka qo'shgan hissasi, o'zbek tilini takomillashtirishdagi xizmatlari yoritiladi. Maqolada Elbekning "Til o'qitishda savodxon bo'laylik", "Gazeta tilida birlik bo'lsun", "Lug'at va atamalar" nomli maqolalari keltirilib, izohlangan va maqola matni yuzasidan savollar va test topshirig'i berilgan.

Kalit so'zlar: tilshunos olim Elbek, "Til o'qitishda savodxon bo'laylik", "Gazeta tilida birlik bo'lsun", "Lug'at va atamalar" nomli maqolalar, savollar, test.

Bilimning barchasi ona tili orqali beriladir.

Maktabdagi ona tili – borliq bilimning negizi ham bosqichidir.

Elbek

XX asrda bolalar adabiyoti uchun talaygina asarlar yaratildi. Bu asarlarning yaratilishida jadid ma'rifatparvarlarining hissasi beqiyosdir. Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Elbek(asl ismi Mashriq Yunusov)lar butun umrlari davomida bolalarga atab asarlar yozishdi, yosh avlodning savodxon bo'lishini istab maktablar ochishdi va darsliklar yaratishdi.

Ayniqsa, Elbekning yozib qoldirgan merosi bolalar adabiyotining turli janrlariga mansubligi bilan boshqa jadidchilarning ijodidan farqlanadi. Elbek barcha qiyinchiliklarga, hayotning achchiq mashaqqatlariga chidab,

ham o'qituvchilik qilib, ham bolalar uchun she'rlar, topishmoqlar, ashulalar yozib qoldirib, Krilov, Pushkin, Nekrasov, Lermontov asarlaridan tarjimalar ham qilgan.

Elbek tilshunos olim sifatida o'nlab maqolalar yozib qoldirgan. Maqolalarida asosan tilimizdagi so'zlarimizni saqlab qolish, o'zlashgan so'zlarning o'rniga o'z tilimizdagi so'zlarni qo'llash, haqida so'z boradi. Bu dolzarb mavzu bugungu kunda ham ahamiyatlidir. Elbekning maqolalari, darsliklari, xullas ijodi haqida yoritishda quyidagi tadqiqot ishi¹¹⁶dan foydalansak, ancha nazariy ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

“Elbekning ilmiy merosida tilshunoslik muammolarini o'rganishga oid asarlari talaygina. Ular jumlasiga «Til o'qitishda savodxon bo'laylik», «Gazeta tilida birlik bo'lsun», «Imlo masalasi» kabi maqolalarini; «Yozuv yo'llari», «Boshlang'ich maktabda ona tili» kabi ilmiy-usuliy qo'llanma dasturlarini; «Lug'at va atama» kabi tarixiy izohli lug'atini aytib o'tish mumkin.

Dastlabki ikki maqolada adibning maktablardagi ona tili ta'limiga doir nuqtai nazari va munosabati ifodalangan. Uning fikricha, maktab ta'limi jarayonida ona tili faniga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki ona tili fani savodxonlik darajasini oshirish va boshqa barcha fanlarning bilimlarini egallashda asos bo'ladi. Ijtimoiy davr talabidan kelib chiqib, uni takomillashtirish va sifat – samaradorligini yaxshilash yo'l-yo'riqlarini izlab topish shart. Bu uchun, eng avvalo, mazkur fandan saboq beradigan o'qituvchilarning savodlilik darajasini yuksaltirish chora-tadbirlarini ko'rish kerak. Chunki muallimlar xalq savodxonligining umumiy zanjirida dastlabki bo'g'in hisoblanadi.

Elbek «Gazeta tilida birlik bo'lsun» maqolasida bu xususda shunday yozadi: «Matbuotchilar ham o'qituvchidan ta'lim oladilar, ular o'rgatganicha yozadilar. Turli bilimdagi o'qitg'uvchilardan sabog' olgan o'qig'uvchi ham ustoz izidan boradir. Bilimlari andoq bo'lg'on o'qitg'uvchidan o'rgangan tolib-gazetachi ham so'zlarni turlicha yozadir».

Shu ma'noda, Elbek ona tilini barcha fanlarga ta'sir etuvchi, ularni o'z qonun-qoidalari bilan zabt etuvchi keng qamrovli fan deb tushundi. O'qituvchilar qaysi fan egasi bo'lishlaridan qat'iy nazar ona tilini yaxshi bilishlari, to'g'ri yoza olishlari shart deb bildi¹¹⁷”.

¹¹⁶ Jumayeva M. “Elbek asarlarining leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari” diplom ishi. Buxoro-2014

¹¹⁷ Узоков Х. Эрк йўлида эркисиз кетган фидойи / Элбек. Танланган асарлар. –Т.: Шарк, 1999. –Б. 16.

Elbek ona tiliga juda qattiq e'tibor berish kerakligini ta'kidlaganida haq edi, bunga misol, bugun ham ba'zi birimiz uyimizdagi jihozlarning o'zbek tilida nomlanishi bilmaymiz. Yoki ko'chada so'zlashganimizda shevadagi so'zlar bilan chet tilidagi so'zlarni qo'shib gapiramiz. Hattoki, insonlarga atab qo'yilgan ismlarni ham turli xilda talaffuz qilamiz. Masalan, hozirgina "Jadidlar kundaligi" nomli telegram guruhiga kelgan xabarni ham qo'shib o'tmoqchiman:

"Ko'chirmachiligimiz natijasida o'zbek tilida ba'zi nomlar ikki-uch tarzda yozilib kelinmoqda. Masalan, "Gamlet" yoki "Hamlet", "Geyne" yoki "Hayne", "Gyugo" yoki "Hyugo", "Tagor" yoki "Thakur", "Garold" yoki "Harold" tarzida yozamiz. Ulug' ingliz dramaturgi (William Shakespeare) ismini goh "Vilyam", goh "Uilyam" tarzida yozamiz. Xullas, bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin."

Elbekning ijodi haqidagi tadqiqot ishida yana quyidagilar yoritib o'tilgan:

"Yuqoridagi asarlarda adibning o'zbek tilining lug'at tarkibini yot so'zlardan tozalash, uni soflashtirish, yagona o'zbek adabiy tilini shakllantirish, imlo qoidalarini takomillashtirish xususidagi ayrim fikr-qarashlari ham ifodalangan.

Elbekning 1923-yilda yozilgan «Boshlang'ich maktabda ona tili» usuliy qo'llanma - dasturida ham maktab ta'limida, umuman millat hayotida ona tili fani muhim ahamiyat kasb etishi yana bir bor alohida ta'kidlangan. U yozadi: «Bir elning maktabin tirgizaturg'on narsa u elning ona tilisidir. Bir elning maktabi o'sha elning o'z tilining negiziga qurilgan bo'lmog'i tegishdir. El tili el maktabig'a ona bo'lmog'i tegishdir»¹¹⁸.

Elbek boshqa jadidlar singari ta'lim, ayniqsa, o'quv jarayonining dastlabki bosqichi har bir xalqning o'z ona tilida amalga oshirilishi lozim, deb hisoblaydi va bu fikr-g'oyalarini o'zbek xalqining ijtimoiy-ma'rifiy hayotiga joriy etishga intiladi. Milliy ta'lim tizimini yaratishda, qolaversa, millatni va uning adabiy tilini shakllantirishda ona (o'zbek) tili muhim asos bo'lishligi uning barcha asarlari mazmuniga chuqur singdirilgan. «Bilimning barchasi ona tili orqali beriladi. Maktabdagi ona tili – borliq bilimning negizi ham bosqichidir», — deb yozadi Elbek.¹¹⁹

¹¹⁸ Элбек. Бошланғич мактабда она тили / Танланган асарлар. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 264

¹¹⁹ Jumayeva M. "Elbek asarlarining leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari" diplom ishi. Buxoro-2014

Bola tug'ilishi bilanoq Allani eshitib ulg'ayadi, birinchidan, Allani o'z ona tilida eshitadi, asta-sekin o'zi ham shu tilni tushunib Allaga jo'r bo'lib aytishni boshlaydi, ikkinchidan, Alla, bola uchun hayotidagi ilk axloqiy-estetik tarbiya beruvchi bolalar folklorining namunasidir. Ota-ona va Ustoz bolaga ta'lim-tarbiya berar ekan, nimaiki o'rgatmasin barchasini ona tilida so'zlaydi. Til yashasagina – millat yashaydi. Til borki, biz muloqot qilamiz, ta'lim olamiz va jamiyatda o'z o'rnimizni topamiz. Elbek tilning barcha imkoniyatlarini anglab, bolalarni savodli qilish uchun oson yo'l va usullarni o'ylab topib, o'zining dastur va qo'llanmalarni yaratadi. Elbek o'zbek tilini ommalashirishda matbuotdan ham keng foydalanadi.

Lug'atshunoslik Elbekning pedagogik va ilmiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Elbek 1924-yilda "Lug'at va atamalar" nomli izohli lug'atini yaratib, "Inqilob" va "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnallarida chop ettiradi. Elbek bu lug'atiga o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz Lutfiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxonlarning asarlaridan parchalar keltirib, asarlardagi har bir so'zni izohlab bergan, uning ma'no-mazmunini to'la yoritib bergan. U so'zning o'z (bosh) ma'nosi bilan bir qatorda ko'chma ma'nolarini ham izohlashga harakat qilgan.

Shuningdek, Elbekning "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1925-yil 3- va 5-6-sonlarda nashr qilingan "Lug'at va atamalar" asarini ustozimiz Amonov U.S.(BuxDPI dotsenti, PhD) bilan birgalikda eski yozuvdan hozirgi amaldagi yozuvimizga tabdil qildik, hamda "Elbek ijodidan topilmalar" kitobiga kiritdik, bu kitobimiz yaqin kunlarda nashr qilinadi.

Elbekning bu kabi nashr qilinmagan va o'rganilmagan qanchadan-qancha asarlari bor, bular ustida tadqiqotlar olib borib, avloddan-avlodga yetkazish bizning maqsadimiz va burchimizdir. Quyida maqola asosida test va savollar¹²⁰ keltirilgan, savollardan ilmiy izlanuvchilar, o'qituvchi va talabalar foydalanishlari mumkin:

1. Elbekning bolalar adabiyotidagi ijodi qanday xususiyatlarga ega?

Elbek bolalar adabiyotida she'rlar, topishmoqlar, ashulalar yozib qoldirgan. Shuningdek, u Krilov, Pushkin, Nekrasov, Lermontov asarlaridan tarjimalar ham qilgan.

2. Elbekning tilshunoslik bo'yicha maqolalari qanday mavzularni qamrab oladi?

¹²⁰ Savollar va test tuzishda sun'iy intellektidan foydalanilgan.



Elbekning maqolalari asosan tilimizdagi soʻzlarimizni saqlab qolish, oʻzlashgan soʻzlarning oʻrniga oʻz tilimizdagi soʻzlarni qoʻllash haqida boʻladi.

3. Elbekning “Gazeta tilida birlik boʻlsun” maqolasida qanday masalalar koʻtarilgan?

Maqolada matbuotchilar oʻqituvchilardan taʼlim olishlari, oʻrgatganicha yozishlari kerakligi taʼkidlangan.

4. Elbekning “Boshlangʻich maktabda ona tili” usuliy qoʻllanmasida qanday fikrlar ifodalangan?

Maktab taʼlimida ona tiliga alohida eʼtibor qaratish, ona tili fani savodxonlik darajasini oshirishda asos boʻlishi kerakligi taʼkidlangan.

5. Elbekning “Lugʻat va atamalar” lugʻatida qanday maʼlumotlar mavjud?

Lugʻatda soʻzlarning oʻz maʼnosi va koʻchma maʼnolari, shuningdek, adabiy namunalardan parchalar keltirib, har bir soʻzning maʼnosi izohlanadi.

6. Elbekning maqolalari va darsliklaridagi dolzarb mavzular bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?

Bugungi kunda ham Elbekning tilimizni saqlash, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va imlo qoidalarini yaxshilash kabi mavzular dolzarb hisoblanadi.

7. Elbekning ijodida qanday masalalar muhim ahamiyatga ega?

Elbek ona tilining muhimligi, tilni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, savodxonlikni oshirish kabi masalalarga katta ahamiyat bergan.

8. Elbek qaysi ijodiy faoliyatlari orqali oʻzbek tilining rivojiga hissa qoʻshgan?

Elbek sheʼrlar, topishmoqlar, ashulalar yozgan, tarjimalar qilgan va tilshunoslik maqolalari yozgan.

9. Elbekning “Lugʻat va atamalar” asarida qanday tillashuv usullari qoʻllanilgan?

Asarda soʻzlarning oʻz maʼnolari va koʻchma maʼnolari izohlangan, shuningdek, tarixiy izohlar va adabiy namunalardan parchalar keltirilgan.

10. Elbekning ijodiy merosi qanday asarlarni oʻz ichiga oladi?

Elbekning ijodiy merosi maqolalar, usuliy qoʻllanmalar, lugʻatlar va adabiy tarjimalarni oʻz ichiga oladi

Test

1. Elbekning bolalar adabiyotidagi ijodining qanday jihatlari boshqa jadidchilarning ijodidan farqlanadi?
 - A) U faqat she'rlar yozgan
 - B) U faqat hikoyalar yozgan
 - C) U she'rlar, topishmoqlar, ashulalar yozgan va tarjimalar qilgan
 - D) U faqat tarixiy asarlar yozgan
2. Elbekning tilshunoslik sohasidagi maqolalari asosan qanday mavzularga qaratilgan?
 - A) O'zbek tilining tarixiy rivojlanishi
 - B) O'zbek tilidagi so'zlarni saqlab qolish va o'zlashtirilgan so'zlarga qarshi kurash
 - C) Dunyo tillarining ta'limi
 - D) Tilning grammatika qoidalari
3. Elbekning "Gazeta tilida birlik bo'lsun" maqolasida qanday fikr bildirilgan?
 - A) O'qituvchilar matbuotchilardan ta'lim olishlari kerak
 - B) Gazetalar faqat ma'lumotlar tarqatadi
 - C) Matbuotchilar ona tilida yozishni talab qilishi kerak
 - D) Har bir o'qituvchi o'z uslubida ishlashi mumkin
4. Elbekning "Boshlang'ich maktabda ona tili" usuliy qo'llanmasida nima ta'kidlangan?
 - A) Ona tili faniga e'tibor qaratish lozim
 - B) Maktabda matematikani kuchaytirish kerak
 - C) Ona tili fani faqat badiiy adabiyot bilan cheklanishi kerak
 - D) Maktabda faqat ingliz tilida ta'lim berilishi kerak
5. Elbekning 1924-yilda yozilgan "Lug'at va atamalar" lug'atida qanday tavsiflar mavjud?
 - A) So'zlarning tarixiy ma'nolari
 - B) Har bir so'zning izohlanishi va ko'chma ma'nolari
 - C) Faqat grammatika qoidalari
 - D) So'zlarning o'zgarishi
6. Elbekning qaysi asari maktab ta'limida ona tilining muhimligini ta'kidlaydi?
 - A) "Lug'at va atamalar"
 - B) "Til o'qitishda savodxon bo'laylik"

- C) "Boshlang'ich maktabda ona tili"
D) "Imlo masalasi"
7. Elbekning maqolalarida qanday savodxonlik darajasi ta'kidlangan?
A) O'qituvchilarning savodxonlik darajasi
B) Matbuotchilarning savodxonlik darajasi
C) Talabalarning savodxonlik darajasi
D) Yozuvchilarning savodxonlik darajasi
8. Elbekning qaysi asari o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ajdodlar asarlarini izohlaydi?
A) "Boshlang'ich maktabda ona tili"
B) "Lug'at va atamalar"
C) "Imlo masalasi"
D) "Yozuv yo'llari"
9. Hozirgi kunda qanday muammo mavjudligini Elbekning fikrlariga asoslanib aytish mumkin?
A) Ona tili so'zlari noto'g'ri talaffuz qilinmoqda
B) Ingliz tilidagi so'zlarning qo'llanilishi
C) O'zbek tilida faqat badiiy asarlar mavjud
D) Yozuv tizimining isloh etilishi zarur
10. Elbekning "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida chop etilgan qaysi asarini Amonov U.S. hozirgi yozuvimizga tabdil qilganlar?
A) "Lug'at va atamalar"
B) "Boshlang'ich maktabda ona tili"
C) "Yozuv yo'llari"
D) "Imlo masalasi"

Adabiyotlar:

1. Amonov U.S. O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. Toshkent: "Paradigma", 2018-yil, 99-120-betlar.
2. Amonov U.S. Armug'on yolqinlar. Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2017.
3. Amonov U.S. O'zbek tili. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti. 2011.
4. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
5. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.

6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407. 8.

7. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil. 73-77-betlar.

https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.

8. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.

https://www.researchgate.net/publication/309593503_FOLKLORE_IN_THE_WORKS_OF_ABDURAU_FITRAT

https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE-WORKS-OF-ABDURAU_FITRAT

[Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63](https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE-WORKS-OF-ABDURAU_FITRAT/Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63)

9. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=096>

10. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>

11. Amonov U.S. Новые грани творческого наследия Элбека. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020 yil. 4-son. 62-63-betlar.

12. Jamilova B.S. O'zbek bolalar adabiyoti: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. – 312 b.

13. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti: darslik-majmua. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 368-b.

14. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 216-b.

15. Jumaboyev M. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent: "O'zbekiston", 2002. – 232-b.

16. Mirzayev Saydulla. XX asr o'zbek adabiyoti : darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 396 b.

17. Qurbonov Y. "Siz doimo qalbimizdasiz" (2-kitob) – Buxoro: Durдона nashriyoti, 2018. -212-b.

18. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O'Qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b.

<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>

19. Saparova Sh.R. "The classification of Elbek poems in 5 directions" ped_mahorat@umail.uz 2021-yil, dekabr. 175-bet.

20. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish: o'quv dasturi-o'qituvchi-baholash xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro-2023. 352-355-betlar

21. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek philologist, teacher, children's poet" "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta'lim va tarbiya integratsiyasi" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar

22. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar.

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52>

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

23. Saparova Sh.R. "Both creative and teacher" Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: Zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 15-may. 230-232-betlar.

24. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar.

<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>

25. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 10, 2023 ISSN (E): 2993-2769. P-564-572

[View of Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" \(grnjournal.us\)](https://grnjournal.us)

26. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature"

<https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>

27. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti: darslik. – Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2019. – 428 b.
28. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.– 356b.
29. Vohidov R., Mahmudov M. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2004. – 319-b.

SADRIDDIN AYNIYNING MILLIY TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARI VA BUXORODA JADID MAKTABLARINING OCHILISHI

G‘ulomova Hilola Shavkatovna
Buxoro shahar 28-o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada Sadriddin Ayniyning milliy ma’naviyatga va adabiyotga qo‘shgan hissasi, jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, ular yaratgan ta’lim-tarbiya mezonlari xususida so‘z yuritilgan.*

Аннотация: *в статье говорится о вкладе Садриддина Айни в национальную духовность и литературу, идеях, выдвигаемых джадидами, и созданных ими критериях образования.*

Abstract: *The article discusses the contribution of Sadriddin Aini to national spirituality and literature, the ideas put forward by the Jadids, and the educational criteria they created.*

Kalit so‘zlar: *jadid, maktab, ma’rifatparvarlik, axloq, dostonlar, adabiyot.*

Jahonda Turkiston jadidchilik harakati va bu harakat natijasida yuzaga kelgan jadid adabiyotiga qiziqish uning kishilik jamiyati taraqqiyotida muhim o‘ringa egaligi, rivojlanish tendensiyasining alohidaligi, tarixiy haqiqatlarga to‘laligi tufayli hamisha katta bo‘lgan. Jadid adabiyotining buyuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar dunyoviy ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, inson kamoloti bilan bog‘liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Dunyo adabiyotshunosligida adabiy jarayon masalasiga bo‘lgan munosabatni davr kesimida turib baholash, adabiy materiallarning

ГУЛИСТОН ЁҲУД АХЛОҚ" АСАРИ АСОСИДА) <i>Азимхўжа Отаҳўжаев</i>	289
ABDURAUF FITRATNING "ARUZ HAQIDA" RISOLASI VA UNDA ARUZ NAZARIYASINING O'RGANILISHI <i>Umida KAMOLOVA</i>	297
AHMAD DONISHNING "NAVODIR UL-VAQOYE" ASARIDAGI MAQOLA VA HIKOYATLAR TAVSIFI HAMDA BAYONI <i>Jamolova Lubat Ilhomovna</i>	300
JADIDLARNING ARAB IMLOSI ISLOHOTLARIGA MUNOSABATI TARIXI <i>Ahmadv Xurshid San'atovich</i>	302
ELBEKNING O'ZBEK TILI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI, HAMDA ASARLARINING NAZARIY-METODOLOGIK AHAMIYATI <i>Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna</i>	307
SADRIDDIN AYNINING MILLIY TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARI VA BUXORODA JADID MAKTABLARINING OCHILISHI <i>G'ulomova Hilola Shavkatovna</i>	316
JADIDLAR TOMONIDAN DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALARNING NASHR ETILISHI <i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna</i>	321
JADIDCHILIK ADABIYOTI SHAKLLANISHI VA ILK NAMUNALARI <i>Islamova Qunduz</i>	327
JADIDCHILIK TARIXI VA UNDAGI G'OYALARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA O'RNI <i>Sayfullayeva Shahinabonu G'ayrat qizi</i>	331
JADIDCHILIK TARIXI VA UNING VUJUDGA KELISHI <i>Jo'rayeva Shohida Choriyevna</i>	336
JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARI VA ULARNING GENDER TENGLIK MASALALARIDAGI FIKRLARI <i>Mansurova Nigora Dmitriy qizi</i>	338
JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHIDA AHMAD ZAKIY VALIDIYNING O'RNI <i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna, Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi</i>	343
"THE UNIQUE ROLE OF THE JADID LEGACY IN NEW UZBEKISTAN'S THIRD RENAISSANCE" <i>Khurriyet Makhmudova Mukhtarovna</i>	347

BUXOROLIK JADILAR TOMONIDAN GERMANIYAGA	
YUBORILGAN YOSH BUXOROLIK OMONULLA	
NUSRATILLOYEVNING AYANCHLI QISMATI	
<i>Sobirov Ulug'bek G'ofurovich.....</i>	435
JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHIDA AHMAD	
ZAKIY VALIDIYNING O'RNI <i>Toshtemirova Saodat Abdurashidovna,</i>	
<i>Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi.....</i>	439
MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TARIXGA OID MAQOLALARI	
TAHLILI <i>Raxmatxonov Ayubxon Jahongir o'g'li.....</i>	443
SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR	
IFODASI <i>Qurbonova Nigina Boboxo'jayevna.....</i>	447
JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI VA MILLIY TA'LIM	
SOHASIDAGI ISLOHOTLARI <i>Urunov Shoxijahon Jamshidovich.....</i>	454
BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-	
SHAROITLARI <i>Saparova Shahlo Ramazonovna.....</i>	461
TRAVELOGUES AS CATALYSTS FOR CULTURAL PRESERVATION:	
UNDERSTANDING THE LEGACY OF THE JADIDS IN UZBEK	
HERITAGE <i>Ismailova Sitara Nokulovna.....</i>	468
THE FOUNDER OF JADIDISM ISMA'IL GASPIRALI CLASSIFIED	
ACTIVITIES <i>Zhurayeva Zuhra, Нусратов А. Х.</i>	474
JADIDLAR VA MAORIF <i>To'xtayeva Shahinabonu Shuxrat qizi.....</i>	478
ЖАДИДЧИЛИК ТАРИХИ. ТАНБУРИЙ ҚИСМАТИ	
<i>Шарофат Ашурова.....</i>	483
ИЗУЧЕНИЕ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ ЗА РУБЕЖОМ	
<i>Хасанова Гульшод Касимовна, Шарапова Ангелина Замировна.....</i>	491
РАЗЛИЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖАНРА БАСНИ В ТВОРЧЕСТВЕ	
ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА	
АБДУЛЛЫ АВЛОНИ) <i>Агламов Тохир Хусаинович.....</i>	495
BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO'LISH	
OMILLARI VA ULARDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIGA	
MUNOSABAT MASALASI <i>Aslonov Madamin Mansurovich.....</i>	498
ЖАДИДЛАР НИГОҲИДА ВАТАН ТАРИХИ (АБДУРАУФ ФИТРАТ	
МИСОЛИДА) <i>Аҳмадова Зебинисо Шавкатовна.....</i>	509